



"O'zbekneftgaz" QW
"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ
MTRB xizmati
RO'YXATGA OLINDI
074/055-3235
2023 yil "03" 05
№074/

TASDIQLAYMAN
"Sho'rtan GKM" MCHJ
Ekspertexnik komissiyasi raisi

J. Xalimov
" 2023 y.

**"Sho'rtan GKM" MCHJ ehtiyoji uchun
ISO 37001-2016 xalqaro standarti asosida**

"Korrupsiyaga qarshi kurashish" menejment tizimini joriy etish uchun

Sertifikatlashtirish idorasi xizmatlarini xarid qilish uchun

Texnik topshiriq

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1 Nomi
ISO 37001:2016 xalqaro standarti asosida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini joriy etish.
1.2 Asos va maqsadi
<p>Asoslar: 1. O'zbekiston Respublikasida boshqaruv tizimlarini sertifikatlashtirish tartibini o'rnatuvchi "Muvofiqlikni baholash to'g'risidagi" va "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.</p> <p>2. Boshqarish tizimlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi Nizom (O'zstandart Agentligining 04.01.2016 yildagi 2-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan).</p> <p>3. "O'zbekneftgaz" AJ Moliyaviy komplayens nazorat departamenti hamda HR-departamenti xodimlari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishning 2023 yil 25 fevraldagi 43-79/1-sonli bayoni qarori.</p> <p>Maqsad: Majmua Integratsiyalashgan boshqaruv tizimining ISO 37001-2016 xalqaro standarti talablariga mos kelishini tasdiqlovchi sertifikat olish.</p>

2. QO'LLANILISH SOHASI

Ushbu sertifikat tovar gazi, suyultirilgan gaz, gaz kondensati va oltingugurt ishlab chiqarish uchun tabiiy gazni qayta ishlash, polietilen granulari va polietilen mahsulotlari ishlab chiqarish sohalarida qo'llaniladi.
--

3. TOPSHIRISH VA QABUL QILISH QOIDALARIGA TALABLAR

3.1 Topshirish va qabul qilish tartibi
Ijrochi o'tkazilgan xizmatlar natijasi bo'yicha Buyurtmachiga baholash natijalari haqidagi hisobotni hamda hisob-faktura va bajarilgan xizmatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini taqdim etadi. Dalolatnomaning ikki tomonlama imzolanishi xizmatlarning amalga oshirilganligini bildiradi.
3.2 Xizmatlar ko'rsatish natijasida buyurtmachiga beriladigan texnik va boshqa hujjatlarga talablar
Ijrochi tomonidan Sertifikatlashtirish auditi xizmatlari natijasi bo'yicha Buyurtmachiga tovar gazi, suyultirilgan gaz, gaz kondensati va oltingugurt ishlab chiqarish uchun tabiiy gazni qayta ishlash, polietilen granulari va mahsulotlari ishlab chiqarish sohalarida qo'llanilishi uchun xalqaro e'tirofdagi sertifikat va milliy muvofiqlik sertifikatlari beriladi.

4. KAFOLAT MUDDATI VA/YOKI HAJMIGA TALABLAR

Xalqaro e'tirofdagi sertifikat va milliy muvofiqlik sertifikatlarining amal qilish muddati 3 yilni tashkil etadi.

5. XIZMAT KO'RSATISHGA TALABLAR

5.1 Xizmat ko'rsatishga talablar
Ijrochi tizimni joriy qilish jarayonida olgan ma'lumotlarining barchasini sir saqlashi shart.
Xizmat ko'rsatish sifati amaldagi qonunchilik va boshqa hujjatlar talablari darajasida bo'lishi kerak.



Xizmat ko'rsatish O'zbekiston Respublikasining davlat tilida olib borilishi kerak. Ijrochi sertifikatlashtirish auditigacha bo'lgan jarayonlarni va o'qitish xizmatlarini to'g'ri ko'rsatganligi uchun javobgardir.

5.2 Ish hajmi

Xizmat tarkibi quyidagi ishlardan iborat:

1. ISO 37001:2016 xalqaro standarti asosida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini joriy etish uchun korxonada mavjud bazani baholash.
2. ISO 37001:2016 xalqaro standarti asosida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini joriy etish bo'yicha yo'l xaritanini ishlab chiqish, unda joriy qilish bosqichlari to'g'risida batafsil ma'lumot berish.
3. ISO 37001:2016 xalqaro standarti asosida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini joriy etish davomida va keyinchalik foydalanilinish uchun o'zbek tilidagi barcha zarur qo'llanma va materiallar bilan ta'minlash.
4. ISO 37001:2016 standarti bo'yicha xodimlarni o'zbek tilida o'qitish ishlarini olib borish va o'quv materiallari bilan ta'minlash.
5. ISO 37001:2016 xalqaro standarti asosida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini joriy etish jarayonlarida qatnashish va nazorat qilib borish.
6. Korxonada joriy etilgan ISO 37001:2016 xalqaro standarti asosida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini sertifikatlash jarayonida texnik yordam ko'rsatish.

6. QO'SHIMCHA (BOSHQA) TALABLAR

Ijrochi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Xizmat ko'rsatish uchun tegishli litsenziyasining borligi (sertifikatlashtirish idorasi hamda standart bo'yicha o'qitish idorasi sifatida).
2. ISO bo'yicha xalqaro e'tirofdagi layoqatli auditorlarining borligi va maxsus sertifikatga egaligi (IRCA, CABs va b. tashkilotlardan).
3. MDH va O'zbekistonda sertifikatlashtirish xizmatlarini ko'rsatish bozorlaridagi faoliyati (kamida 5 yil).
4. Shtatida yetakchi auditorlarning borligi (auditorlarning kasbiy tayyorgarligi va ish tajribasini tasdiqlovchi obektiv ma'lumotlarni taqdim etish);
5. Neftgaz sohasida xalqaro auditlarni o'tkazish tajribasi borligi (majburiy);
6. ISO 37001 xalqaro standarti bo'yicha milliy akkreditatsiyaning borligi (akkreditatsiya sertifikati nusxasini taqdim etish);
7. ISO 37001 xalqaro standarti bo'yicha IAF yoki uning a'zosi e'tirofidagi xalqaro akkreditatsiyaning borligi (akkreditatsiya sertifikati nusxasini taqdim etish);
8. Sertifikatlashtirish idorasi yoki uning tarkibiy tashkiloti muntazam ravishda korxonaga uchun dolzarb va istiqbolli boshqarish tizimlari standartlari bo'yicha ommaviy treninglar o'tkazib turishi;
9. Sertifikatlashtirish idorasi boshqarish tizimlari bo'yicha mahalliy va xalqaro ko'lamdagi konferensiyalarni o'tkazishda muntazam ishtirok etishi;
10. ISO 37001:2016 xalqaro standarti asosida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini joriy etgan tashkilotlardan tavsiyanomalarning borligi.



7. QABUL QILINGAN QISQARTMALAR RO'YXATI

t №	Qisqartmalar	Qisqartmalarga izoh
1	IAF	International Accreditation Forum (Xalqaro Akkreditatsiyalash Forumi)
2	ISO	International Organization for Standardization (Xalqaro standartlashtirish tashkiloti)
3	IRCA	International Register of Certificated Auditors (Sertifikatga ega Auditorlarning Xalqaro Registri)
4	CABs	Conformity Assessment Bodies (Muvofiqlikni Baholash Organlari)
5	MDH	Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi

Ishlab chiqdi:

IBX boshlig'i o'rinbosari –
SMT guruhi rahbari

A. Qurbonov

Kelishildi:

Bosh hisobchi

Sh. Umarov

Moliya va g'aznachilik bo'limi boshlig'i

F. Norbo'tayev

Bosh hisobchi o'ribosari

N. Toirov

BSH va ITB boshlig'i

X. Jabborov

BSH va ITB iqtisodchisi

H. Roziqov

PBX (HR) boshlig'i

O. Qodirov

MTIH bo'limi boshlig'i

A. Rahmatullayev

Yuridik xizmat katta yuristkonsulti

D. Berdiyev

MTRB xizmati muhandisi

A. Ostrolov

